AKTYORLIK MAHORATI TEXNIKASINING MAQSADI

Sherzod Muhammadiyev – *dotsent*
sherzodmuhammadiyev619@mail.com
O‘zDSMI, “Musiqali teatr san’ati” kafedrasi

ЦЕЛЬ ТЕХНИКИ АКТЁРСКОГО МАСТЕРСТВА

Шерзод Мухаммадиев – *доцент*
ГИИК Уз

THE PURPOSE OF ACTING TECHNICS

Sherzod Muhammadiyev – *Associate Professor*
UzSIAC

Tayanch so‘zlar: badiiy ijod, erkin fikrlash, fe’l-atvor ustida ishlash, urg‘u, talaffuz, ishonch, maqsad-vazifa, matn, rol.

Rezyume. Talabalik saflarga qabul qilingan yoshlarga teatr san’ati, uning mashaqqatlari, aktyorlik kasbining o‘ziga xos qiyinchiliklari va afzalliklari borasida xolisona ma’lumot berilishi shart. Shundan keyingina tadrijiy ravishda navbatdagi jarayonga o‘tish lozim. Bu jarayon aktyorlik mahorati texnikasi (psixotexnika), san’at turlari, shu jumladan, maqom teatrining o‘ziga xos xususiyatlari, teatr etikasi, badiiy saviya, aktyorlik mahoratining unsurlari, maqom teatri aktyorligi yo‘nalishi talabalari uchun alohida, mukammal shakldagi musiqiy-ritmik tarbiya *bo‘lgan* mashq–etyudlar ustida ishlashni o‘rganishdan, o‘zlashtirishdan iboratligi haqida so‘z yuritiladi.

Ключевые слова: художественное творчество, свободное мышление, работа над характером, акцент, произношение, уверность, целеустремленность, текст, роль.

Резюме. Молодым людям, принятым в студентческие ряды, необходимо предоставить объективную информацию об искусстве театра, его трудностях, специфике и преимуществах актёрской профессии. Только после этого они должны постепенно переходить к следующему этапу обучения. Этот этап состоит в изучении и освоении техники актёрского мастерства (психотехники), видов искусства, включая специфику маком-театра, театральной этики, художественного уровня, элементов актёрского мастерства, а также в работе над упражнениями-этюдами, которые представляют собой отдельную, полноценную форму музыкально-ритмического образования для студентов актёрского отделения маком-театра.

Key words: . artistic creativity, free thinking, work on character, accent, pronunciation, confidence, purposefulness, text, role.

Summary. Young people admitted to the student ranks must be provided with objective information about theater art, its difficulties, and the specifics and advantages of the acting profession. Only after this should they gradually move on to the next stage of learning. This stage consists of studying and mastering the technique of acting (psychotechnics), art forms, including the specifics of the maqom theater, theatrical ethics, artistic level, elements of acting, as well as working on exercise sketches, which are a separate, full-fledged form of musical-rhythmic education for students of the maqom theater's acting department.

Biz bugun Yangi O‘zbekistonni yaratish, uchinchi renessans avlodini tarbiyalash yo‘lidan bormoqdamiz. Bu jarayonda o‘ta bilimli va iqtidorli kasb egalarini tarbiyalash oldimizda turgan ezgu maqsad va intilishlarning o‘zagidir. Shunday ekan, har bir kasb ma’lum bir hajmdagi bilimni, ko‘nikma va malakani talab etishiga e’tibor qaratish birinchi galdagi vazifamiz bo‘lishi shart. Bularsiz tanlangan sohada yetuk mutaxassis bo‘lib shakllanish mumkin emas. Badiiy ijod sohasida, inchunun. San’atning tanlangan sohasi asoslarini o‘zlashtirmay turib uni egallashning iloji yo‘qligini hamma yaxshi biladi. Ammo aktyorlik san’ati haqida so‘z ketsa, shu zahoti turli fikrlar va qarashlar paydo bo‘ladi. Aytishlaricha, qobiliyatli aktyorga hech qanday maktabning keragi yo‘q, qobiliyatsiz aktyorga hech qanday maktab yordam berolmaydi. Bu fikrdan aktyorlik san’atiga o‘qish shart emas, aktyor bo‘lib tug‘ilish kerak, degan xulosa kelib chiqadi. Bo‘lajak aktyorda qobiliyat bo‘lishi kerakligi haqidagi fikrga nisbatan hech qanday e’tiroz bo‘lishi mumkin emas.

Ammo iqtidorli musiqachilar, qo‘shiqchilar va balet raqqoslari tabiat bergan iqtidorlarini rivojlantirish, o‘z san’atlarining texnikasini egallash uchun yillab mehnat qilishlarini qanday baholash mumkin? Nega teatr aktyori uchun faqat tabiat bergan qobiliyatning o‘zi kifoya qilishi kerak?

Haqiqiy san’at qobiliyat va mahoratning birlashuvidan paydo bo‘ladi. Mahorat esa yillar davomida to‘plangan tajriba va an’analar maktabi orqali shakllanadi. Maktab o‘quvchining tabiat bergan xislatlariga ishlov beradi va uni rivojlantiradi, unga kerakli bilim va ko‘nikmani beradi, uni egiluvchan va har qanday ijodiy vazifani bajara oluvchi ta’sirchan shaklga olib keladi. Har qanday san’at turi qatori teatr san’ati maktabining muvaffaqiyati avvalo to‘g‘ri tanlov va ana shu tanlov asosida teatr san’ati maktabida bilim olayotgan qobiliyatli yoshlarning ma’naviy komilligiga bog‘liqdir. Chunki o‘zi komillikka intilmagan ijodkor o‘z ortidan butun bir tomoshabinlar avlodini ergashtira olmaydi. Komil inson, yetuk shaxs tarbiyasi eng muhim va hamisha dolzarb bo‘lib kelayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. Bu yo‘lda ko‘plab bitiklar, maqolalar, risolalar yozilgan va bundan keyin ham yoziladi. Yangi O‘zbekiston avlodini chuqur bilimli va komil inson qilib tarbiyalashda adabiyot va boshqa barcha san’at turlari qatori Maqom *teatri san’atining* ham o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun ham teatr san’ati, maqom teatri aktyorligi yo‘lini tanlagan yoshlar oldida turgan muammolarni hal qilishda hech qachon shoshilmaslik kerak. Agar talaba taqdir taqozosi bilan adashib maqom aktyorligi yo‘nalishi bo‘yicha o‘qishga kirib qolgan bo‘lsa, o‘z vaqtida bu xatoni tuzatish yo‘llarini ko‘rsata bilish lozim. Maqsad- talaba keyinchalik afsus qilmasin, hayotda o‘z o‘rnini topib olsin.

Maqom teatri aktyorini tarbiyalashning ilk pillapoyasi-jarayon haqida izchil, tabiiy ketma-ketlikni saqlagan holda biror qo‘llanma yoki kitob yozish, uslubiyatni xuddi dars jarayonidagidek qog‘ozga tushirish qiyin va og‘ir vazifa.Chunki, bu yorug‘ olamda qancha odam bo‘lsa, hammasining fe’l-atvori o‘zgacha, bir-biriga o‘xshamaydi. Demak, inson xarakterini yaratuvchi, ruhiyatini kashf qiluvchi aktyorning tug‘ilishida barchaga bir xil uslubni qo‘llab bo‘lmaydi. Shunday ekan, aktyorlik mahorati haqida hamma zamonga va hamma talabaga birdek qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan kitobni yozish o‘ta mashaqqatli vazifa. Yozganda ham, ijodiy jarayondagi ba’zi lavhalarni xotirlash, ijodiy topilmalarni muhrlash, ba’zi bir yondashuvlarni misol tariqasida qog‘ozga tushirish, iloji boricha yaxlit bir tizimga solish mumkin. Qolaversa, bu yo‘lda avvalo tajribaga, talabaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ijodiy muloqot qilishga, uning o‘zligini kashf etishiga ko‘maklashish prinsipiga tayanish ma’qulroqdir. Talabalik saflarga qabul qilingan yoshlarga teatr san’ati, uning mashaqqatlari, aktyorlik kasbining o‘ziga xos qiyinchiliklari va afzalliklari borasida xolisona ma’lumot berilishi shart. Shundan keyingina tadrijiy ravishda navbatdagi jarayonga o‘tish lozim. Bu jarayon aktyorlik mahorati texnikasi (psixotexnika), san’at turlari, shu jumladan, maqom teatrining o‘ziga xos xususiyatlari, teatr etikasi, badiiy saviya, aktyorlik mahoratining unsurlari, maqom teatri aktyorligi yo‘nalishi talabalari uchun alohida, mukammal shakldagi musiqiy-ritmik tarbiya *(aynan maqom va musiqali teatr aktyorlarini tarbiyalash jarayoni dramatik teatr aktyorini tarbiyalash jarayonidan shu jihati bilan farq qiladi, chunki, maqom teatri va musiqali teatrda baholash va hatti-harakat qilish jarayoni musiqiy takt, o‘lchamlarga bog‘liq bo‘ladi, aslida teatr san’ati –shartli san’at, lekin maqom teatri va musiqiy teatrning shartlilik darajasi yuqoriligi shu bilan izohlanadi),* mashq –etyudlar, mukammal etyudlar, rol ustida ishlashni o‘rganishdan va eng asosiysi, sahnaviy ijodning nazariy bilimlarini-sahna nazariyasini ham o‘zlashtirishdan iboratdir. “Chunki sahna nazariyasi san’at maktabiga ilk qadam qo‘ygan talabaning aktyorlik kasbi mahorati sirlarini ongli ravishda o‘rganishiga imkon yaratadi. Aktyorlik kasbida nazariya muhim o‘rin tutadi. Ushbu sahna nazariyasini o‘rganish har qanday professional aktyor uchun zaruratdir. Har bir fanda nazariya bevosita amaliyotga yo‘l ochganidek, aktyorlik mahoratida ham nazariy asoslar amaliyot bilan bog‘lanib, to‘ldirib boriladi. Aktyordan sahna nazariyasini o‘qib-o‘rganish talab etiladi, shuningdek, aktyorlik texnikasini o‘zlashtirish, puxta egallash lozim bo‘ladi. Bunga esa ma’lum amaliy mashqlar asosida bosqichma-bosqich erishib boriladi. Aktyorlik texnikasining asoslari dastlab birinchi va ikkinchi kurslarda chuqur o‘rgatilishi lozim. So‘ngra darslar sekin-asta pyesa va rol ustida ishlash, sahna obrazini yaratish usullarini o‘rganishga bag‘ishlanadi”. [1.9]

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, pedagog har bir talabaga uning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib yondashuvi lozim. Shundagina uning o‘ziga xos tabiiy xususiyatlari saqlanib qoladi, sahnada tabiiy-organik hatti-harakat qilish xislati mustahkamlanadi va rivojlanib boradi. Bugun *“berilgan shart-sharoitda-men”* talabi bilan tabiiy ishlayotgan talaba ertaga *“berilgan shart-sharoitda- mening rolim”,* va nihoyat, *timsol* qiyofasida ham tabiiy hatti-harakat qila oladigan ijodkor bo‘lib yetishadi. Pedagog talabalarda o‘z kuchiga, tanlagan kasbiga nisbatan ishonch uyg‘ota bilishi, kelajak hayotida, oldiga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshirishida yo‘l ko‘rsatishi, talabada ijodkor etikasi va insoniylik burchiga

sadoqat ma’suliyatining shakllanishida ko‘mak ham berishi kerak. Zero, millatning kelajagi, san’at yo‘li, uning qay tarzda ko‘rinish olishi aynan pedagog tarbiyalayotgan talaba ijodi, shaxsiyati bilan bevosita bog‘liq va unga aloqador hisoblanadi. Aslida, teatr san’ati pedagogikasi asta- sekinlik bilan shakllanib bordi. Lekin o‘ziga xos murakkabliklar va qarama-qarshiliklar tufayli hamma vaqt ham kutilgan natijani bermadi. Buyuk aktyorlarning eskirib qolgan yuzaki ijro uslublarini ko‘z qorachig‘idek asragan eski maktab ijodning ichki mohiyatini ochib berishga qodir emas edi. Zamonaviy aktyorlik san’ati maktabiga asos solish esa K.S.Stanislavskiyga nasib etdi. U tomonidan teatr tarixida birinchi marta sahna nazariyasi, aktyorlik psixotexnikasi kabi tushunchalarga asos solindi. K.S. Stanislavskiy sahna nazariyasi masalalarini, aktyorlik texnikasi borasidagi fikrlarni ilm darajasiga olib chiqdi va bu “Stanislavskiy sistemasi” nomi bilan butun dunyoda tan olindi. Chunki sistemaning maqsadi- aktyorlarga sahnada rol orqali “inson ruhiyatining hayotini” jonli, badiiy haqiqatga yo‘g‘rilgan holda yaratishiga yordam berishdan iborat edi. Xuddi shu maqsadni amalga oshirish niyatida ham izlanishlar olib borildi va teatr maktabi yaratildi. Bu maktab shakl va mazmun birligini talab etadi.

Agar teatrni ishlab chiqarish tarmog‘i deb tasavvur qilsak, uning mahsuloti yaxshi spektakl bo‘lishi kerak. Yaxshi spektakl tug‘ilishi uchun esa yaxshi xom-ashyo zarur. Teatr san’atida bu xom-ashyo- *dramaturg* tomonidan tavsiya etilayotgan pyesa hisoblanadi. Yaxshi dramaturgiya bilan qurollanmagan teatr xuddi sifatsiz mahsulot ishlab chiqaruvchi, oxir –oqibat kasodga uchrovchi korxona misolidir. Demak, yaxshi dramaturgiyasiz teatrni, u yerda ijod qilmoqchi bo‘lgan aktyorlar va rejissyorlar faoliyatini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Dramaturgiya teatr faoliyatini ta’minlab beruvchi san’at turi hisoblanadi. San’at turi deyishimizga sabab, har qanday yaxshi sahna asari aqliy, hissiy, g‘oyaviy-badiiy ijodning mahsuli hisoblanadi va teatrning asosini ta’minlab beradi.

Boshqa tomondan, yaxshi dramaturgiya nafaqat tomoshabinga chuqur ma’naviy ozuqa beradi, balki rejissyor va aktyorlar ansamblining ijodiy o‘sishiga, yanada kamolga yetishiga xizmat qiladi. Yaxshi pyesa, avvalo, unda ko‘tarilgan mavzu-muammoning aktualligi, sahnalarning tinimsiz kurashlar va hatti-harakatlarga asoslanib qurilgani bilan ajralib turadi. Sahnalashtirilayotgan spektaklning tug‘ilish jarayonini rejissyor boshqaradi. Zero, rejissura san’atining asosiy quroli – aktyordir. To‘g‘ri. Buni nazardan chetda qoldirish mumkin emas. Rejissyor teatr jamoasining har bir a’zosi ijodiy imkoniyatini bilishi, his qilishi va rollar taqsimotiga juda jiddiy mas’uliyat bilan yondoshmog‘i lozim.

Rollarning to‘g‘ri taqsimlanishi bo‘lajak spektaklning muvaffaqiyatli shakllanishini kamida ellik foizga ta’minlab beradi. Rejissuradagi eng muhim jihatlardan yana biri – bu aktyorlar bilan ishlash jarayonidir. Rejissyor aktyorlar ansamblini tanlangan asarda ko‘tarilgan mavzu-muammoga qiziqtira olishi, ularni ilhomlantira bilishi, kezi kelganda aktyorning ijodiy fantaziyasi mahsulidan unumli foydalana olishi va turli topilmalar uchun aktyorni ijodiy-ruhiy rag‘batlantira bilishi zarur. Yaxshi rejissyor ijodiy jarayonda ishtirok etayotgan har bir kishining maslahatiga quloq tutishi va kezi kelganda ulardan o‘zi sahnalashtirayotgan spektaklning sahnaviy yechimiga ma’qulini ustalik bilan qo‘llay olishi lozim. Ayniqsa rassom bilan ishlash jarayonida egoistik xislatlardan yiroq bo‘lishga harakat qilishi kerak.

Chunki rassom rejissyorning sahnaviy asar yechimiga oid mulohazalarini ssenografiya qiyofasida ochib bera oluvchi ijodkor hisoblanadi. Ba’zan rassomning fikrlari rejissyorning o‘zi ham kutmagan yechimlariga turtki bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: “O'zbeksiton” nashriyoti
2. K.S.Stanislavkiy Aktyorning o‘z ustida ishlashi. T.3.-M.:- “Исскуство” nashriyoti
3. M.Abdullayeva.”Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati”.- ”Tafakkur qanoti” nashriyoti
4. J.Maxmudoa, H.Maxmudova-“Aktyorlik mahorati”- Toshkent. nashriyoti
5. S.Tursunboyev Teatr tarixi. -T.: “O‘qituvchi” nashriyoti.